

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQUISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR 116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI 120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna



TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI

[Turdikulova Moxira Maxmasharifovna](#)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Ekonometrika” kafedrasining tayanch doktranti

Email: turdikulova.m.m.88@gmail.com

ORCID: 0009-0009-0829-1766

Annotatsiya: Maqolada aholi turmush darajasini kompleks baholashda ko'p o'lchovli yondashuvlarning afzalliklari asoslab berilib, farovonlikni aniqlash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turmush farovonligi, aholi turmush darajasi, ko'p o'lchovli baholash, ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar, inson taraqqiyoti indeksi, ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi.

Аннотация: В статье обосновываются преимущества многомерных подходов к комплексной оценке уровня жизни и разрабатываются соответствующие предложения по совершенствованию системы определения и мониторинга благополучия.

Ключевые слова: благополучие, уровень жизни, многомерная оценка, социально-экономические показатели, индекс человеческого развития, многомерный индекс бедности.

Annotation: The article substantiates the advantages of multidimensional approaches in comprehensively assessing the standard of living and develops relevant proposals for improving the system for determining and monitoring well-being.

Keywords: благополучие, уровень жизни, многомерная оценка, социально-экономические показатели, индекс человеческого развития, многомерный индекс бедности.

KIRISH

Har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi asosiy maqsad aholining turmush darajasini oshirish, barqaror va inklyuziv rivojlanishni ta'minlashdan iboratdir.

Aholi turmush farovonligi bu nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan belgilanadigan daromadlar yoki iste'mol imkoniyatlari, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va yashash muhiti kabi ko'plab omillar bilan bevosita bog'liq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir. Shuning uchun farovonlikni ta'minlash mamlakatning umumiy taraqqiyot darajasi, uning iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy barqarorligi bilan uzviy bog'liq.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar jarayonida aholi turmush farovonligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, ijtimoiy sohalarning moliyalashtirilishini kengaytirish, hududlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali farovonlikni oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham aholi turmush farovonligini oshirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Aholi turmush farovonligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi, farovonlikni belgilovchi omillar tizimi tahlil qilinadi hamda milliy va xalqaro tajriba asosida barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi turmush farovonligini baholash masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

An'anaviy iqtisodiy yondashuvlarda farovonlik asosan daromad va iste'mol darajasi orqali baholangan bo'lsa, hozirgi davrda inson kapitali, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, yashash sharoitlari va ijtimoiy infratuzilma kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan ko'p o'lchovli baholash yondashuvlari keng qo'llanilmoqda.

Turmush farovonligini baholashning ko'p o'lchovli usullari iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda muhim



ilmiy vosita sifatida qaraladi.

MDH mamlakatlari olimlari turmush farovonligini kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqishda muhim ilmiy hissa qo'shganlar. Jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim N.M. Rimashevskaya o'z tadqiqotlarida aholi turmush darajasi va hayot sifatini baholashda ko'p omilli indikatorlar tizimini qo'llash zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, turmush farovonligini baholash jarayonida daromad darajasi bilan bir qatorda sog'liqni saqlash, ta'lim, demografik ko'rsatkichlar, ekologik muhit va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ham hisobga olinishi lozimligini ta'kidlaydi [1].

Rossiyalik olim V.N. Bobkov ham aholi turmush darajasini baholash bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida farovonlikni o'lchashda ko'p o'lchovli indikatorlar tizimidan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

U turmush darajasini baholashda aholining daromadlari, iste'mol darajasi, bandlik holati, uy-joy sharoiti va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasi kabi ko'rsatkichlarni integratsiyalashgan holda tahlil qilishni taklif etadi [2].

Bu yondashuv turmush farovonligining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatlarini ham aniqlash imkonini beradi.

MDH mamlakatlari olimlaridan L.A. Belyaeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hayot sifati va farovonlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, turmush farovonligini baholashda inson kapitali rivojlanishi, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi va ijtimoiy tengsizlik darajasi muhim mezonlar hisoblanadi [3].

Bu esa farovonlikni baholashda ijtimoiy indikatorlarning rolini yanada oshiradi.

O'zbekistonlik olimlar ham turmush farovonligini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Xususan, akademik S.S. G'ulomov iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan holda, farovonlikni oshirish iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [4].

O'zbekiston iqtisodchi olimlaridan Q.X. Abdurahmonov o'z ilmiy ishlarida aholi bandligi va daromadlarining turmush farovonligiga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, aholi turmush darajasi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlariga, balki mehnat bozorining rivojlanish darajasi, bandlik siyosati va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligiga ham bog'liqdir [5].

Shuningdek, o'zbekistonlik iqtisodchi olim A.V. Vahobov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda milliy iqtisodiyot rivojlanishi va aholi turmush farovonligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan [6].

O'zbekistonlik olim B.Yu. Xodiyev ham iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarida aholi turmush darajasini oshirish masalalarini tadqiq etgan.

Uning ilmiy ishlarida turmush farovonligini oshirish iqtisodiy islohotlarning muhim natijalaridan biri sifatida baholanadi hamda farovonlikni baholashda daromadlar, iste'mol darajasi, bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ko'rsatkichlar kompleks tarzda tahlil qilinishi lozimligi ta'kidlanadi [7].

MDH va O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar turmush farovonligini baholashda ko'p o'lchovli yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi.

Bu tadqiqotlarda farovonlikni baholashda daromad darajasi bilan bir qatorda inson kapitali rivojlanishi, bandlik, ijtimoiy infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi omillar ham hisobga olinishi zarurligi asoslab berilgan.

Mazkur yondashuvlar turmush farovonligini yanada aniqroq baholash, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni aniqlash hamda samarali ijtimoiy siyosatni shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari va yondashuvlari turmush farovonligini faqat iqtisodiy mezonlar asosida emas, balki ijtimoiy, psixologik va siyosiy omillar majmuasi sifatida talqin etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining turmush farovonligi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, aholining yashash sharoitlarini hamda inson kapitalining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ilgari farovonlik asosan aholi daromadlari, iste'mol darajasi yoki yalpi ichki mahsulotning jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi orqali baholangan.

Bu mezonlar ta'lim sifati, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, demografik holat, ijtimoiy himoya tizimi va madaniy xizmatlar bilan ta'minlanganlik kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ko'p o'lchovli baholash usullarini qo'llash turmush farovonligidagi hududiy va ijtimoiy tafovutlarni aniqlash imkonini ham beradi. Masalan, ayrim hududlarda daromad darajasi yuqori bo'lishi mumkin, biroq ta'lim yoki sog'liqni saqlash xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi farovonlik darajasini pasaytiradi.

Boshqa hududlarda esa, aksincha, ijtimoiy xizmatlar yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, bandlik yoki daromad

darajasi past bo'lishi mumkin.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, turmush farovonligini baholashda ko'p o'lchovli yondashuvlardan foydalanish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar uchun zarur metodologik asos hisoblanadi.

Turmush farovonligini baholashning ko'p o'lchovli usullari aholi hayot sifatini kompleks tahlil qilish, ijtimoiy tengsizlik darajasini aniqlash hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Xususan, 2025-yil yakuniga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) 7,7 % ga o'sdi. Bu o'sish sanoat, qurilish va xizmatlar sohasida yuz bergan kengayishlar hisobiga yuzaga keldi.

Ayni vaqtda, iqtisodiy o'sish natijalarining bevosita aholi turmush darajasiga qanday ta'sir qilayotgani masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

YAIM o'sishi bilan birga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishi ham muhim hisoblanadi.

2025-yilda aholining real pul daromadlari o'sishi 4,4 % ni tashkil etdi. Bu esa inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda o'rtacha ijobiy tendensiyani bildiradi.

O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 % dan 2025-yilning oxiriga kelib 5,8 % gacha qisqardi. Bu ijobiy o'zgarish, asosan, "Har bir oila - tadbirkor", "Yoshlar - kelajagimiz", "Temir daftar" kabi maqsadli ijtimoiy dasturlar doirasida aholining iqtisodiy faolligini oshirish, bandlikni kengaytirish va manzilli yordam mexanizmlarining joriy etilishi orqali amalga oshdi.

Aholining farovonligiga eng katta ta'sir qiluvchi omillardan biri bu barqaror bandlik va munosib mehnat haqidir. 2025-yil yakuniga ko'ra, o'rtacha oylik ish haqi 5,9 million so'm atrofida bo'lib, Toshkent shahri va ayrim rivojlangan viloyatlarda bu ko'rsatkich 8–9 million so'mga yetdi.

Bandlik darajasini oshirish uchun davlat tomonidan har yili minglab yangi ish o'rinlari yaratilib, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi maqsadli dasturlar orqali aholining mehnat bozorida faolligi rag'batlantirilmoqda.

Aholining turmush farovonligi faqat daromadlar bilan emas, balki sifatli ta'lim, tibbiy xizmat, uy-joy bilan ta'minlanganlik va yashash muhitining qulayligi kabi omillar bilan ham belgilanadi.

O'zbekistonda 2021–2025-yillarda umumiy o'rta ta'lim tizimi modernizatsiya qilinmoqda, sog'liqni saqlashda esa "Sog'lom ona va bola", "Birlamchi bo'g'in islohoti" kabi dasturlar amalga oshirilmoqda.

Aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasi yil sayin oshmoqda. So'rovnomalarga ko'ra, aholining aksariyati hayotidan qoniqish bildirayotgan bo'lib, farovonlikka erishishda daromadlar o'sishi, uy-joy bilan ta'minlash imkoniyatlarining kengayishi hamda sifatli sog'liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirish muhim omillar sifatida qayd etiladi. Shu bois, aholining ishonchini mustahkamlash va ijtimoiy ishtirokini kuchaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda (1-jadval).

1-jadval. Aholi turmush farovonligi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar (2021–2025 yillar)¹

№	Ko'rsatkich nomi	2021	2022	2023	2024	2025	Izoh
1	YAIM o'sish sur'ati (%)	7,4	5,7	6,3	6,5	7,7	Iqtisodiyot barqaror o'sishda
2	Jon boshiga real YAIM o'sishi (%)	5,5	5,7	7,3	5,9	7,2	Har bir individ uchun iqtisodiy imkoniyat o'sishi
3	Kambag'allik darajasi (%)	17,0	14,1	11,0	8,9	5,8	"Farovonlik sari" kampaniyasi samarasi
4	Rasmiy bandlik darajasi (%)	67,0	67,0	67,9	68,3	68,5	Statistik yangilanish kutilmoqda
5	Ishsizlik darajasi (%)	9,6	8,9	6,8	5,5	5,1	Barqaror past daraja

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda aholi turmush farovonligi ko'rsatkichlari ijobiy dinamikaga ega bo'lgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda iqtisodiyot barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan.

Xususan, YAIM o'sish sur'ati 2021-yildagi 7,4 foizdan keyin 2022-yilda biroz pasayib, 5,7 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, keyingi yillarda yana o'sib borib, 2025-yilda 7,7 foizga yetgan.

Shu bilan birga, jon boshiga real YAIM o'sishi ham ijobiy tendensiyani namoyon etmoqda.

Mazkur ko'rsatkich 2021-yilda 5,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 7,3 foizgacha oshgan va 2025-yilda 7,2 foizni tashkil qilgan. Bu holat aholi uchun iqtisodiy imkoniyatlar kengayib borayotganini va real daromadlarning oshayotganini anglatadi.

1 O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi. (<https://stat.uz>) – Milliy hisoblar bo'yicha axborotnomalar.2025 yil.



Eng muhim ijtimoiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan kambag'allik darajasi esa sezilarli darajada kamaygan. 2021-yilda 17,0 foiz bo'lgan ushbu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 5,8 foizgacha qisqargan. Bu jarayonda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari, xususan, "Farovonlik sari" kampaniyasining samarasi muhim rol o'ynaganini ko'rish mumkin.

Rasmiy bandlik darajasi ham asta-sekin o'sib borgan. 2021–2022-yillarda 67 foiz darajasida saqlangan bo'lsa, 2025-yilga kelib 68,5 foizga yetgan. Bu esa mehnat bozorida barqarorlik shakllanayotganini bildiradi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasi ham sezilarli kamayib, 2021-yildagi 9,6 foizdan 2025-yilda 5,1 foizgacha tushgan (2-jadval).

2-jadval. Aholi turmush farovonligiga baholovcho asosiy ko'rsatkichlar o'zgarish dinamikasi (2021–2025)²

№	Ko'rsatkich nomi	2021	2022	2023	2024	2025	Izoh
1	Aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi (Jini koeffitsiyenti)	0,276	0,273	0,283	0,288	0,286	Daromadlar notekisligini kamaytirishning eng samarali usullari qo'llash
2	Aholi daromadlarining 10 foizli guruhlar bo'yicha differentsiatsiya koeffitsiyenti %	6,8	7,0	7,1	7,1	7,1	Daromadlari umumiy (o'rtacha) qiymati
3	Aholi umumiy daromadlar tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi %	2,0	2,1	2,8	2,7	3,3	Moliyaviy savodxonlikni oshirish
4	Aholi umumiy daromadlar tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi %	24,7	28,3	27,1	28,6	29,6	Transfertlarni manzilli (targeted) qilish

2-jadval ma'lumotlari 2021–2025-yillarda aholi turmush farovonligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarda ma'lum o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatadi.

Xususan, aholi daromadlarining notekis taqsimlanishini ifodalovchi Gini koeffitsiyenti 2021-yildagi 0,276 dan 2022-yilda 0,273 gacha biroz kamaygan, biroq keyingi yillarda 0,283–0,288 darajasigacha oshib, 2025-yilda 0,286 ni tashkil etgan.

Aholi daromadlarining 10 foizli guruhlar bo'yicha differentsiatsiya koeffitsiyenti ham 2021-yildagi 6,8 foizdan 2023–2025-yillarda 7,1 foizgacha oshib, daromadlar o'rtasidagi farq ma'lum darajada ortganini bildiradi.

Aholi daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi esa 2021-yildagi 2,0 foizdan 2025-yilda 3,3 foizgacha oshgan.

Bundan tashqari, transfertlardan olingan daromadlar ulushi ham 24,7 foizdan 29,6 foizgacha oshgan bo'lib, ijtimoiy yordam va davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari aholi daromadlari tarkibida muhim rol o'ynayotganini bildiradi.

2020–2025-yillar davrida turmush farovonligining asosiy ko'rsatkichlari ijobiy yo'nalishda o'zgardi, biroq ularning sifat jihatdan chuqur tahlili va hududiy tengsizliklarni bartaraf etish borasida kompleks yondashuvni davom ettirish zarur.

Bu esa turmush farovonligini faqat daromadlar bilan emas, balki hayot sifati, teng imkoniyatlar, ishonchli investitsiyalar va davlat siyosatining samaradorligi orqali belgilash zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham aholining real daromadlari o'sishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga nisbatan sust bo'lib qolmoqda.

Umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda aholi turmush farovonligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda quyidagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

- aholi bandligini ta'minlovchi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash lozim;
- har yili rasmiy bandlik o'sishiga yo'naltirilgan davlat dasturlarini amalga oshirish lozim;
- kam ta'minlangan oilalarning bolalarini ta'lim va sog'liqni saqlashda qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish zarur;

² O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi. (<https://stat.uz>) – Milliy hisoblar bo'yicha axborotnomalar.2025 yil.



– norasmiy bandlikda ishlayotganlarni rasmiylashtirish uchun yengillashtirilgan ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini yaratish zarur;

– kasbga qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish orqali mehnat resurslarining samaradorligini oshirish zarur.

Yuqoridagi muammolar va ularning yechimlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, turmush farovonligini ta‘minlash bir vaqtning o‘zida iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ekologik sohalarda uyg‘un siyosat yuritilishini talab etadi.

Farovonlikning ta‘minlanishi orqali nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi, balki iqtisodiy faollik, mehnat unumdorligi va inson kapitali sifatining oshishiga ham zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Римашевская Н.М. Народное благосостояние и социальная политика. Москва: Наука, 2013.
2. Бобков В.Н. Уровень и качество жизни населения России. Москва: ВЦУЖ, 2010.
3. Беляева Л.А. Уровень и качество жизни: проблемы измерения и интерпретации // Социологические исследования. 2019. №1. С. 33–42.
4. G‘ulomov S.S. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Sharq, 2015.
5. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Vaxobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Toshkent: Baktria press, 2015.
7. Xodiyev B.Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish strategiyasi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2017.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100